

# MAKTAB O'QUVCHILARINI FAVQULODDA VAZIYATLARDA TO'G'RI HARAKAT QILISHGA TAYYORLASHNING O'ZIGA XOS TOMONLARI

Xoldarov Azizjon Rasulovich

*Namangan viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi*

*Namangan shahar, Oromgoh ko'chasi, 5*

*gmail: [egamberdiyevazizbek206@gmail.com](mailto:egamberdiyevazizbek206@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash tizimi to'g'risida ma'lumot keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** favqulodda vaziyat, fuqaro muhofazasi, tabiiy, texnogen, ekologik, zilzila, suv toshqini, qor ko'chkisi, kuchli shamol, epidemiya, epizootiya, epifitotiya, pandemiya, karantin, xavfsizlik.

## ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ ШКОЛЬНИКОВ К ПРАВИЛЬНОМУ ДЕЙСТВИЮ В ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЯХ

Холдаров Азизжон Расулович

Наманганское областное управление по чрезвычайным ситуациям

г. Наманган, ул. Оромгох, 5

**Аннотация:** в статье рассматриваются некоторые стороны системы подготовки учащихся среднеобразовательных школ Республики Узбекистан к действиям в чрезвычайных ситуациях природного и техногенного характера.

**Ключевые слова:** чрезвычайное ситуация, гражданская защита, природная, техногенное, экологическая, землетрясение, наводнение, лавина, сильный ветер, эпидемия, эпизоотия, эпифитотия, пандемия, карантин, безопасность, подготовка, система, наука, учебник, сейсмический.

# **SPECIFIC ASPECTS OF PREPARING SCHOOLCHILDREN TO ACT CORRECTLY IN EMERGENCY SITUATIONS**

Kholidarov Azizjon Rasulovich

Namangan Regional Emergency Management

Namangan city, Oromgoh Street, 5

**Abstract:** the article examines some aspects of the system of preparing students of secondary schools of the Republic of Uzbekistan for actions in emergency situations of a natural and man-made nature.

**Key words:** emergency situation, civil protection, natural, man-made, ecological, earthquake, flood, avalanche, strong wind, epidemic, epizootic, epiphytotic, pandemic, quarantine, security, preparation, system, science, textbook, seismic.

## **KIRISH**

Sayyoramizning turli joylarida sodir bo'layotgan tabiiy, texnogen hamda ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar insoniyatdan ushbu hodisalarga qarshi turishda zarur choralarni qo'llashni hamda ularga tayyor bo'lishini talab etmoqda. E'tirof etish kerakki, mamlakatimizdagi ko'plab sohalar qatori umumta'lim maktablari o'quvchilarini ham o'quv yili davomida, umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga muvofiq o'qish jarayonida darslarda, sport o'yinlari, musobaqalarida va boshqa joylarda favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash va o'qitish ishlari olib borilmoqda. Ma'lumot uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2022/2023 o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalari soni 10 522 tani tashkil etgan bo'lib, ularda 6 mln. 304 ming nafar o'quvchilar tahsil olishmoqda. Bu esa mamlakatimiz aholisi umumiy sonining (36 mln. 372 ming kishini) sal kam 17,4 foizini tashkil etadi [1].

## **ADABIYOTLAR TAHLILI**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 18 dekabrda 348-son qarori bilan tasdiqlangan "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish va uni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan

boshlang'ich harbiy ta'lim asoslari, favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularda harakat qilish, fuqaro muhofazasi va tibbiy bilim asoslari sohasidagi qator mavzular bo'yicha ta'lim muassasalari o'quvchilariga CHQBT fani rahbarlari va o'qituvchilari tomonidan o'qitilib kelinmoqda [2]. Ta'lim muassasalari o'quvchilarining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi (CHQBT)ga jami 140 o'quv soati ajratilgan bo'lib, mashg'ulotlar har haftada ikki soatdan o'tkaziladi. Shuningdek, o'quvchilarining o'quv mashg'ulotlari vaqtida o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va mahoratlari to'garaklar, sportning tegishli turlari bo'yicha seksiyalar va harbiy-sport musobaqalari jumladan, "Yosh qutqaruvchi" musobaqalari davomida mustahkamlanadi [3].

Hozirgi kunda umumta'lim maktablarining 10- va 11-sinflarida CHQBT fani



o'qitilmoqda va ushbu fan darsliklarida fuqaro muhofazasi, hayot xavfsizligi asoslari, xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarda inson muhofazasi va tibbiy bilim asoslari to'g'risida

ma'lumotlar berilgan. Kitoblarda berilgan mavzularni o'zlashtirish orqali o'quvchilar favqulodda vaziyat sodir bo'lganda qanday harakat qilish kerakligi borasida ko'nikmalarga ega bo'ladilar [4]. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik (ChQBT) fanidan darslikning 6- va 7- bo'limlari Fuqaro muhofazasi va tibbiy bilim asoslari sohalariga bag'ishlangan va 14 ta amaliy va nazariy o'quv mashg'ulotlari mavzularini o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, ular ChQBT fani darsligida mavjud barcha mavzular sonining salkam yarmini tashkil etadi. Bu esa umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini favqulodda vaziyatlarda muhofazalanish, jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish, jamoaviy va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish qoidalari va usullariga o'rgatish ishlariga ham e'tibor

berilayotganligini belgisidir [5]. Darslikdagi barcha mashg'ulot mavzularida "O'quv faoliyati natijalari", "Bilasizmi?", "Tayanch so'zlar:" va "Savol va topshiriqlar" rukunlari mavjud bo'lib, o'quvchilar tomonidan mavzuni yahshi o'zlashtirishda qulay vosita bo'lmoqdalar [5]. Darslikning 6-bo'limidagi "Favqulodda vaziyatlar tushunchasi. Zilzila, ko'chkilar, suv toshqini, sel, qor ko'chishi, kuchli shamollar va boshqalar. Yaqinlashib kelayotgan xavf belgilari" deb atalgan 1-mashg'ulot mavzusida favqulodda vaziyatlar tushunchasi hamda O'zbekiston Respublikasi hududida sodir bo'lish ehtimoli mavjud tabiiy xarakterdagi favqulodda vaziyatlar haqida so'z boradi. Shu jumladan, mashg'ulot mavzusida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-oktabrida "Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida"gi qabul qilingan 455-son Qarori va unga ko'ra, favqulodda vaziyatlar vujudga kelish sabablari bo'yicha texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarga tasniflanishi hamda zarar ko'rgan odamlar soni, moddiy zararlar miqdori va ko'lamiga qarab lokal, mahalliy, respublika va transchegaraviy turlarga bo'linishi bayon etilgan [6]. ChQBT fanining 10-sinf o'quv qo'llanmasidagi oltinchi bo'lim ikkinchi bobidagi 1-mashg'ulot mavzusi "Favqulodda yuzaga keladigan epidemiologik, epizootik va epifitotik vaziyatlar. Karantin va pandemiya" hamda o'sha bobdagi 2-mashg'ulot mavzusi "Texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar tushunchasi va ularning yuz berish sabablari" deb ataladi. Shuningdek, o'quv qo'llanmaning oltinchi bo'lim uchinchi bobi ommaviy qirg'in qurollari va ulardan aholini himoya qilish ishlariga bag'ishlangan bo'lib, 1-mashg'ulot mavzusi "Yadroviy qurol. Yadroviy zararlanish o'chog'i. Termoyadro quroli. Neytron bombasi. Kimyoviy qurol", 2-mashg'ulot mavzusi "Bakteriyaviy (biologik) qurol. Karantin va observatsiya. Zamonaviy oddiy qirg'in vositalari" deb nomlangan. Ushbu kitobning oltinchi bo'lim to'rtinchi bobi shaxsiy (individual) himoya vositalari, vazifasi, tuzilishi va ulardan foydalanish tartibiga bag'ishlangan bo'lib, 1-mashg'ulot mavzusi "Nafas olish organlarini himoya qiluvchi individual vositalar. Fuqaro gazniqoblari. Ularning vazifasi, tuzilishi va ulardan foydalanish. Respirator. Changga qarshi matoli niqob, paxta-doka

bog‘lagich va ulardan foydalanish” hamda 2-amaliy mashg‘ulot mazusi “Terini himoya qilish vositalari. Maxsus himoya vositalari: umumqo‘shin himoya jamlanmasi, yengil kostyum, himoyalovchi-filtrlovchi kiyim. Umumqo‘shin himoya jamlanmasidan “yoping‘ich”, “yengil plash”, “kombinezon” ko‘rinishida foydalanish. L-1 yengil kostyumini kiyish. Terini himoya qilishning qo‘lbola vositalaridan foydalanish. Germetizatsiyalash va aralashma shimdirish orqali himoya xususiyatlarini oshirish” deb ataladi [7]. Shuningdek, oltinchi bo‘limning 5-, 6- va 7-boblari Fuqaro muhofazasi himoya inshootlari, evakuatsiya tadbirlarida aholining harakat qilish tartibi, sanitariya ishlovi, kiyim-bosh va buyumlarni zararsizlantirish tadbirlariga bag‘ishlangan bo‘lib, ularda asosan radiatsiyaga qarshi pana joylar, oddiy pana joylar, odamlarni himoya inshootlariga joylashtirish, evakuatsiya tadbirlarini o‘tkazish va odamlarni sanitariya ishlovidan o‘tkazish bilan bog‘lik masalalar yoritilgan 3ta mashg‘ulot mavzularidan iborat. Darslikning oltinchi bo‘limidagi “Fuqaro muhofazasi himoya inshootlari” nomli 5-bobda 1-mashg‘ulot mavzusi “Panagohlar. Radiatsiyaga qarshi pana joylar. Oddiy pana joylar. Odamlarni himoya inshootlariga joylashtirish” haqida bo‘lib, unda quyidagilar bayon qilingan.

### **TAHLILLAR VA NATIJALAR**

Mamlakatning ishlab chiqarish kuchlari va aholini dushmanning ommaviy qirg‘in qurolidan himoya qilish davlatning muhim vazifalaridan biridir. Bu vazifani hal qilish usullaridan biri iqtisodiyot obektlari va aholi punktlarida odamlarni yashirish uchun turli xil himoya inshootlarini qurishdan iborat. Himoya inshootlari oldindan tayyorlangan bo‘lishi yoki maxsus ko‘rsatma bo‘yicha qurilishi mumkin.

Panagoh maxsus inshoot bo‘lib, yashiringan odamlarni yadro portlashining barcha shikastlovchi omillaridan, zaharlovchi moddalar va bakteriyaviy vositalardan, shuningdek, yuqori harorat hamda zararli gazlardan himoya qilishga mo‘ljallangan.

Panagoh asosiy va yordamchi xonalardan tashkil topadi. Asosiy xonalarda odamlar joylashadi. Bu xonalarda o‘tirish uchun 2 yoki 3 qavatli so‘rilar va

yotish uchun tokchalar qilinadi. Yordamchi xonalarda sanuzel, filtr-ventilyatsiya kamerasi, tibbiyot xonasi, dizel elektrostansiyasi joylashadi [7]. Kitobning yettinchi bo‘limi Tibbiy bilim asoslari sohasiga bag‘ishlangan bo‘lib, u 1 ta bob va 1 ta amaliy va 3 ta nazariy o‘quv-mashg‘ulotlaridan iborat. Jumladan, 1-nazariy mashg‘ulot mavzusi “Jarohat to‘g‘risida tushuncha, jarohatlarning turlari. Jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam. Bog‘lam va bog‘lash uchun materiallar. Shaxsiy bog‘lash paketidan foydalanish qoidalarini”, 2-amaliy mashg‘ulot mavzusi “Amaliy. Bosh, ko‘krak, qorin, qo‘l va oyoq sohalariga sterilizatsiya qilingan bog‘lamlar qo‘yish”, 3-amaliy mashg‘ulot mavzusi “Qon ketishining turlari. Qon ketishini vaqtincha to‘xtatish usullari. Arteriya qon tomirlarini barmoq bilan bosish nuqtalari. Qo‘lbola siquvchi bog‘lam va tasma (jgut)dan foydalanish qoidalarini” hamda 4-amaliy mashg‘ulot mavzusi “Suyak sinishi to‘g‘risida tushuncha va uning belgilari. Bosh suyagi, yelka, ko‘krak qafasi, oyoq va qo‘l suyaklari singanda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish usullari” deb nomlangan [8]. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 11-sinfi uchun ChQBT fanidan darslik jami 7ta bo‘limdan iborat bo‘lib, ulardan 1- hamda 7-bo‘limlari “Fuqaro muhofazasi. Hayot xavfsizligi asoslari. Xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarda inson muhofazasi” hamda “Tibbiy bilim asoslari” yo‘nalishlariga oid 29 ta mavzulardan iborat. Darslikdagi mavzular mazmunini o‘quvchilar tomonidan oson o‘zlashtirishlari uchun unda fotoma‘lumotlar, chizmalardan foydalanilgan. Har bir bob so‘ngida mavzuni o‘zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida nazorat savollari berilgan. Darslikda yoshlarga harbiy ta‘lim berishdan tashqari fuqaro muhofazasi, hayot xavfsizligi asoslari, xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarda inson muhofazasi hamda tibbiy bilim asoslari to‘g‘risida ham ma‘lumotlar berilgan bo‘lib, ush bu mavzularni o‘zlashtirish orqali o‘quvchilar favqulodda vaziyat sodir bo‘lganda qanday harakat qilish kerakligi borasida ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

## **XULOSA**

Bugungi kunda dunyo aholisi sonining ortib borishi bilan, respublikamiz aholisi soni ham ortib bormoqda. Insoniyatning atrof-muhitga ta‘sirini inobatga

olsak, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar insonlarning hayoti va sog'ligiga, atrof-muhitga jiddiy zarar keltirmoqda. Jabrlanuvchilarning orasida maktab o'quvchilari sonining ko'pligi achinarli holat. Shu sababli ham maktab o'quvchilarini favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishga tayyorlash tizimini takomillashtirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda quyidagilarni taklif etaman:

- Umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilariga Hayot faoliyati xavfsizligi fanidan dars mashg'ulotlari olib borish.
- Maktab o'quvchilari o'rtasida "Yosh qutqaruvchi" ko'rik tanlovini tashkil etish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 18 dekabrda 348-son Qarori
2. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik. 11-sinf uchun darslik/ Sh.Ubaydullayev, B.Gafurov, D.Ubaydullayeva. Toshkent: «ILM ZIYO», 2018. 200 b.
3. <https://www.yandex.ru/images/search/ChQBT-10-11-sinf-darslik;>
4. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik [Matn]: 10-sinf uchun darslik/ – Toshkent : Respublika ta'lim markazi, 2022. – 160 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-oktabrida "Texnogen, tabiiy va ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida"gi qabul qilingan 455-son Qarori
6. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik [Matn]: 10-sinf uchun darslik/ – Toshkent : Respublika ta'lim markazi, 2022. – 160 b.
7. Birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha qo'llanma. O. M. Muxitdinova, Sh. T. Yusupov. Toshkent, 2003 y.